

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIY HAYOT VA KUTUBXONALAR FAOLIYATI

Xaydarova Ro'zixon Abdurasul qizi

Qo'qon davlat universiteti, ilmiy tadqiqotchi.

e-mail: Xaydarovaroixon5@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-0414-4230>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida madaniy hayotning rivojlanishi, ilm-fan taraqqiyoti hamda kutubxonalar faoliyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Temuriylar davlatida madaniyat va ma'rifat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, saroy kutubxonalarining tashkil etilishi va qo'lyozmalarni saqlash an'analari yoritilgan. Shuningdek, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro davridagi ilmiy-madaniy muhit tahlil qilingan. Natijada Temuriylar davri Markaziy Osiyoda Uyg'onish davrining muhim bosqichi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temuriylar, madaniyat, kutubxonalar, ilm-fan, qo'lyozmalar, Samarqand, Hirot, ma'rifat.

КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ И РАБОТА БИБЛИОТЕК ВО ВРЕМЕНА ПРАВЛЕНИЯ АМИРА ТИМУРА И ТИМУРИДОВ

Хайдарова Рузихон Абдурасул кизи

Кокандский государственный университет, научный сотрудник.

Аннотация.

В данной статье научно анализируются развитие культурной жизни, прогресс науки и деятельность библиотек в эпоху Амира Тимура и Тимуридов. В ходе исследования раскрываются приоритетные направления государственной политики Тимуридов в области культуры и просвещения, вопросы организации дворцовых библиотек и традиции хранения рукописей. Особое внимание уделено анализу научно-культурной среды периода правления Мирзо Улугбека, Алишера Навои и Хусейна Байкары. В результате сделан вывод о том, что эпоха Тимуридов является одним из важнейших этапов Центральноазиатского Возрождения.

Ключевые слова: Амир Тимур, Тимуриды, культура, библиотеки, наука, рукописи, Самарканд, Герат, просвещение.

CULTURAL LIFE AND THE WORK OF LIBRARIES DURING THE REIGN OF AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS

Xaydarova Ro'zixon Abdurasul qizi

Kokand State University, Researcher.

Abstract.

This article provides a scholarly analysis of the development of cultural life, scientific progress, and library activities during the era of Amir Temur and the Timurids. The study examines the key directions of the Timurid state's cultural and educational policies, the establishment of palace libraries, and the traditions of preserving manuscripts. Particular attention is given to the scientific and cultural environment during the reigns of Mirzo Ulugh Beg, Alisher Navoi, and Husayn Bayqara. The findings demonstrate that the Timurid period represents one of the most significant stages of the Central Asian Renaissance.

Keywords: Amir Temur, Timurids, culture, libraries, science, manuscripts, Samarkand, Herat, enlightenment.

Kirish. Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy yuksalish hamda ilm-fan va madaniyatning jadal rivojlanishi bilan ajralib turadigan muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. XIV asr oxiri – XV asrda Amir Temur tomonidan asos solingan ulkan saltanat nafaqat harbiy-siyosiy jihatdan kuchli davlat sifatida shakllandi, balki madaniy-ma'rifiy taraqqiyot uchun ham mustahkam zamin yaratdi.

Mazkur davrning o'ziga xos jihati shundaki, davlat boshqaruvida ilm-fan va ma'rifat ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaraldi. Amir Temur o'z siyosatida ilm ahliga hurmat bilan munosabatda bo'lib, turli mamlakatlardan olimlar, fozillar, me'morlar va san'atkorlarni markaziy shaharlarga, xususan, **Samarqandga** jalb etdi. Natijada Samarqand o'z

davrining yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi.

Temuriylar davrida madaniy hayotning rivojlanishida kutubxonalar alohida o'rin tutgan. Kutubxonalar nafaqat kitob saqlash maskani, balki ilmiy tafakkur va ma'rifat tarqalishining muhim markazi sifatida faoliyat yuritgan. Qo'lyozmalarni yig'ish, saqlash, ko'chirish va tarjima qilish ishlari davlat miqyosida qo'llab-quvvatlangan. Bu esa o'z navbatida ilmiy bilimlarning avlodlar avlodga yetib borishini ta'minlagan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — **Amir Temur** va temuriylar davrida madaniy hayot hamda kutubxonalar faoliyatining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini kompleks tahlil qilishdan iborat. **Tadqiqot** obyekti sifatida **Temuriylar** davri madaniy muhiti olinadi, predmeti esa ushbu davrdagi kutubxonalar tizimi va ularning ilm-fan rivojida o'rni hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADALOGIYA

Amir Temur va Temuriylar davrida kutubxonachilik hamda qo'lyozma fondlari masalasi turli ilmiy va ommabop manbalarda yoritilgan. Ushbu manbalarni tahlil qilish ularning mazmuniga ko'ra bir necha yo'nalishga ajratish imkonini beradi.

Birinchidan, kutubxonachilikning nazariy asoslari A.I. Kormilisin, M.M. Rasulov va S.X. Davlatovning asarida bayon etilib, unda kutubxonalar rivoji, ularning jamiyatdagi o'rni va faoliyat prinsiplari tushuntirilgan [1]. Bu manba Temuriylar davridagi kutubxonalarni umumiy tizimda baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, zamonaviy ilmiy maqolalarda Temuriylar davrida kitobat va kutubxonalar rivoji yoritilgan. Xususan, D. To'ychiyeva bu davrda xattotlik, qo'lyozma tayyorlash va bezak san'ati yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi [8]. Shuningdek, Axmatov va Qambarov ilm-fan taraqqiyoti bilan kutubxonalar faoliyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'kidlaydi [5:15-b.].

Uchinchidan, elektron manbalar (Zenodo, Oyina.uz) Temuriylar davridagi ilmiy muhit, kutubxonalar tashkil etilishi va qo'lyozmalar fondining boyligi haqida umumiy ma'lumot beradi [2]. Bu manbalar mavzuni kengroq yoritadi, biroq ayrim hollarda umumlashtirilgan xarakterga ega.

To'rtinchidan, ayrim tadqiqotlarda kutubxonalarning keyingi taqdiri muhokama qilinadi. O. Rasulov maqolasida Amir Temur kutubxonasining mavjudligi e'tirof etilib, uning yo'qolib ketish sabablari haqida turli taxminlar keltiriladi [6]. Shuningdek, boshqa internet manbalarida ham kutubxona bilan bog'liq afsonaviy qarashlar va qidiruv ishlari bayon qilingan [7] [10].

Beshinchidan, xorijiy tadqiqotchilar, jumladan, R. Nazarъyan ishlari Mirzo Ulug'bek kutubxonasining qayerda joylashgani va uning taqdiri haqidagi turli versiyalarni tahlil qiladi [9]. Bu esa muammoning hanuzgacha to'liq hal etilmaganini ko'rsatadi.

Shuningdek, ayrim ommabop va badiiy manbalarda (masalan, A. Kosarev) tarixiy faktlar bilan birga afsonaviy talqinlar ham uchraydi [11], bu esa mavzuning ilmiy jihatdan yanada chuqur o'rganilishi zarurligini bildiradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Amir **Temur** va temuriylar hukmronlik qilgan davrlarda qo'lyozmalar saqlanadigan kutubxonalarning ko'p asrlik tarixi ko'p miqdorda qo'lyozma fondlarining jamlanishi, bilimlarning turli tarmoqlariga doir asarlar mavjud bo'lgan yangi kutubxonalar tashkil etilishi bilan tahsincha sazovor. XIV asrning ikkinchi yarmida — XV asrning boshlarida **Movarounnahr**da me'morchilik va amaliy san'at keng rivoj topdi. Amir Temur davlatining poytaxti bo'lgan Samarqand ulkan shaharga aylandi, bu yerda ko'plab saroylar, **masjidlar**, madrasalar, maqbaralar va boshqa jamoat inshootlari barpo etildi [1:28-b.].

Ma'lumki, deyarli barcha manbalarda temuriylar kutubxonasining bugungi kunga qadar mavjud ekanligi yoki yo'qolib ketganligi haqidagi qarashlarga duch kelamiz. Lekin hech biri ilmiy jihatdan o'zining aniq isbotini topganicha yo'q. Temuriylarning tarixiy kutubxonasi bugungi kunga qadar kimlar tomonidan qay tarzda tadqiq etilganligini va ilmiy xulosalarni qisqacha keltirib o'tamiz.

Mamlakatda jahon ilm-fani yo'nalishi sifatida tibbiyot, **astronomiya**, matematika, falsafa, tarix, adabiyot va boshqa fanlar keng quloch yoyib, yanada qadr topdi. Bu esa qo'lyozma fondlari, saroylar, madrasalar huzurida kutubxonalar tashkil etilishi va xususiy kutubxonalarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Amir Temur hukmronlik qilgan yillarda (1370–1405) qo'lyozma **manbalarni** saqlash va kutubxonalar tashkil etish borasida katta g'amxo'rlik qilindi. Amir Temur ilm-fan homiysi, sahovatpesha hukmdor bo'lgan. U adabiyot va san'atni yaxshi ko'rgan. Masalan, uning hukmronlik qilgan davrining birinchi yarmida zabt qilingan hududlarda to'plangan kitoblar va qo'lyozmalar Shahrisabzga yuborilgan. Ushbu keltirilgan qo'lyozma **manbalar** jamlanmasi natijasida saroyda maxsus qo'lyozmalar kutubxonasi tashkil etilgan. Ayniqsa, mamlakat poytaxti bo'lgan Samarqanddagi saroy kutubxonasi **mashhur** bo'lib, bu yerda yunon, lotin, arab, arman, fors va boshqa tillarga oid noyob va nodir hisoblangan qo'lyozma asarlar saqlanardi. Ushbu qo'lyozmalarining aksariyat qismi Amir Temur zabt etgan mamlakatlardan keltirilgan. Turkiyaning **Bursa** shahridagi mashhur kutubxonadan Samarqandga ko'pgina qimmatli **hisoblangan** nodir qo'lyozma asarlar keltirilgan. Bursa kutubxonasi antik davrdagi mashhur kutubxonalardan biri — Pergam kutubxonasining **merosxo'ri** edi. Bu yerda Arximedning zamondoshi hisoblangan matematik Apolloniy, o'z davrining mashhur faylasuflaridan Antigon Karistskiy, Kichik Nefas va boshqa ko'pgina kishilar faoliyat ko'rsatgan [2:33-b.].

Ma'lumki, u davrlarda nashriyot hali yo'q edi, shuning uchun **kitoblar qo'l yordamida ko'chirilardi**. Natijada bu davrda xat va kitob ko'chirish, uni bezaklar bilan ziynatlash bilan bog'liq bo'lgan mashhur siymalar — xattotlar yetishib **chiqdilar**. Ulardan Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Xiraviy, Mir Imod, Sulton Muhammad Xandon, Mavlono Ma'ruf, Abduljamil kotib, Darvesh Muhammad Samarqandiy, Pir Muhammad So'fi Buxoriy va boshqalarning nomlari hurmat bilan tilga olinadi. Bu xattotlar, asosan, xatning nastaliq xilida shunchalik go'zal yozardilarki, ularni o'qish nihoyatda oson edi. Kitoblarni muqovalash, oltin suvi va rasmlar (miniaturalar) bilan bezashning nodir

san'atkorlari — Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhiblar ham ana **shu** davrda voyaga yetgan siymolardir.

Amir Temur ta'lim-tarbiya ishiga alohida e'tibor qaratib, madrasalar qurishga farmon bergan ekan, bu jarayonning kitoblarsiz bo'lishi mumkin emasligini ham yaxshi tushunadi. Faqat bu emas, balki o'zi va arkoni davlatning ham ma'rifatli, ma'lumotli bo'lishini istardi. Chunki Amir Temur, ibn Arabshohning guvohlik berishicha, «men azaldan ilm shaydosiman» va «men olimlar bilan doim suhbatda **bo'lib**, ular ishidan xabardorman» degan ekan, bunday kishining olimlar va adiblar ijodiy ishining mahsuli bo'lmish kitoblar taqdiriga befarq qarashi mumkin emasdi. Bunga qo'shimcha ravishda Amir Temur tuzuklarida bayon etilgan ayrim fikrlar aytilganlarning haqiqat ekanidan dalolat beradi [3:5-b.].

Ozarboyjonga yurishi vaqtida Shabistar qishlog'ining nomi Temurga Mahmud Shabistariy va uning "Gulshani roz" kitobini eslatadi. So'rab-surishtirilganida ma'lum bo'ladiki, Shabistariy chindan ham shu qishloqda yashab o'tgan, uning qabri esa qarovsiz holda ekan. "Shunda Amir Temur o'z odamlariga farmon berib, qabr o'rnida mo'jaz bir maqbara qurishni, atrofdan maqbaraga qarashli vaqf yer ajratishni, undan keladigan daromadlar hisobiga bog' barpo etish va shoir qabrini ziyoratgoh kabi obod saqlashni buyuradi. Bundan tashqari, Sohibqironning maxsus buyrug'iga asosan Shabistar aholisining yoshi o'n besh yoshdan yuqori bo'lgan fuqarolarining har biriga (3891 nafar) besh misqoldan (1 misqol – 5 gramm) umumiy hisobda 19455 gramm, ya'ni bugungi hisobda salkam 20 kilo oltin ulashiladi" (Brion M. *Menkim, sohibqiron – jahongir Temur*. Toshkent, "Yoshlar matbuoti", 2023. 27-bet).

Temur saroyida kotib bo'lgan va uning hayot yo'lini chuqur o'rgangan tarixchi Hafizi Abro' bunday yozgan: "Amir Sohibqiron maktabda o'z tengqurlaridan saboqda o'zib ketardi. Balog'at yoshiga yetguncha ilm, adab, xat va suxanvorlik kasb etdi. Undagi teran bilim shijoatga payvand bo'ldi va shundan so'ng amirlik mansabini egalladi" (Hafizi Abro'. *Zubdat ut-tavorix*. Turkiyadagi "Fotih" kutubxonasi. Inv. № 4371. 14-sahifa).

Sohibqiron askarlariga fath etilgan mamlakatning olim-u fuzalolari, yuksak iste'dod va hunar egalari, noyob qo'lyozmalari, qaysi din bo'lishidan qat'i nazar, ibodatxonalariga zarar yetkazmaslikni buyurgan. Uning saltanatida o'z davrining eng katta va boy "Dor ul-kutub" ("Kitoblar uyi") kutubxonasi nodir kitoblar va noyob qo'lyozmalar bilan to'ldirilgan. Ularni saqlashga, asrab-avaylashga katta e'tibor berilgan (qarang: *Amir Temur – jahon tarixida*. Toshkent, "Sharq", 2001. 91-bet).

Samarqanddagi saroy kutubxonasi juda mashhur bo'lgan. Rus olimi Dmitriy Logofetning yozishicha, "Amir Temur hukmronlik qilgan dastlabki yillarda mazkur kutubxona Shahrisabzda bo'lgan. Keyinchalik Samarqandga ko'chirilgan" (Salomova M. *Temuriylar davrida kutubxonalar*. "Ma'rifat" gazetasi, 2004-yil 4-dekabr). Mazkur kutubxonada yunon, lotin, fors, suryoniy, arman va boshqa tillardagi eng noyob qo'lyozmalar saqlangan. Ta'kidlash joizki, barcha kitoblar XI–XII asrlardagi mashhur kutubxonalar singari fanlar bo'yicha joylashtirilib, maxsus sandiqlarda saqlangan. Saroy kutubxonasida o'z davrining yetuk olimlari hisoblangan Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshiy, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono No'moniddin Xorazmiy, Xo'ja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiylar Amir Temur homiyligida ilmiy-ijodiy faoliyat olib borgan" (Fayziyev X. *Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan rivoji*. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 11-kitob. Toshkent, 2021. 172–173-betlar).

Temur saroy ahli, turli lavozim egalari, jamiyat a'zolarining ham savodli bo'lishini muhim deb bilgan. Sohibqiron fikriga ko'ra, "Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir" (*Amir Temur o'gitlari*. Toshkent, "Navro'z", 1992. 59-bet).

Insoniyat tarixida o'tgan ayrim hukmdorlar urushlarda erishgan g'alabasidan so'ng noyob kitob va qo'lyozmalarni yoqib yuborib, ta'lim maskanlarini yakson qilgan. Temur esa, aksincha, qaysi yurtida bo'lmasin, kitob va noyob qo'lyozmalarni to'plab, ularni asrab-avaylagan holda Samarqandga jo'natgan. Bundan maqsad poytaxtini dunyoning eng yirik madaniy markaziga aylantirish edi. Amir Temur fan va madaniyat arboblari, hunarmandlar bir joyga jamlansa, kutubxonalar qancha ko'p va boy bo'lsa, mamlakatda ilm-fan va madaniyat shuncha tez rivojlanishini teran anglagan [4:10-b.].

Amir **Temur** kutubxonasidan faqat saroy vakillarigina emas, balki muayyan guruhdagi kitobxonlar ham foydalanganlar. **Kutubxonadagi** kitoblar fan sohalari bo'yicha ro'yxatga olinib, sandiqlarda saqlangan. **Bu** tartib kitoblarni hisobga olish uchun emas, balki foydalanish oson bo'lishi uchun ham o'rnatilgan. Temurdan so'ng uning noyob kutubxonasi nabirasi Ulug'bekka (1394–1449) meros bo'lib qolgan. Ulug'bek davrida **O'rta Osiyo** kutubxonachilik ishi yanada rivojlandi. Ayniqsa, **Ulug'bek** topshirig'i bilan 1428–1429-yillarda **Samarqanddagi** observatoriya qoshida tashkil etilgan kutubxona eng boy kitob fondiga ega bo'lgan [5:43-b.].

Taxmin qilishlaricha, Ulug'bek yiqqan kitoblar xazinasi **Pergam** qo'lyozmalaridan boshlangan, Temur **Pergam** shahrini bosib olganda qo'lyozmalarni ham karvon bilan Samarqandga olib kelgan. Kutubxona Ulug'bek davrida betinim boyib borgan. Kutubxonada Platon, Gippokrat, Ptolomey, Aristotel asarlari to'plangan va yaxshi saqlangan. Bulardan tashqari, bu yerda vatandoshlarimiz buyuk olim Muhammad ibn Muso Xorazmiyning algebraga doir mashhur risolasi, Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» va «Astronomiya kaliti» nomli asarlari, **Al-Battoni**ning astronomik jadvallari; Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» risolasi, **Ulug'bekning** «Ziji jadidi Ko'ragini», «**Ulug'bek ziji**» kabi asarlari bo'lgan. Ulug'bek kutubxonasining mudiri vazifasiga shogirdi Ali Qushchini tayinlagan. 1449-yilda halok bo'lgan Ulug'bek kitoblar xazinasining bundan keyingi qismati ham Ali Qushchi bilan bog'liq bo'lgan. [5]

Kutubxonaning qidiruv ishlari Samarqand Rossiya imperiyasiga qo'shib olingandan so'ng darhol boshlandi. 1869-yildayoq bu Turkiston general-gubernatori, sharqshunos **Aleksandr** Kun qoshidagi maxsus topshiriqlar amaldori zimmasiga yuklatilgan edi. Sankt-Peterburg universitetining Sharq fakultetining bu bitiruvchisi arab, fors va turkiy tillarni yaxshi bilgan. Bundan tashqari, Kun onasi tomonidan arman bo'lganligi sababli, ushbu mashhur kutubxona haqida eng qadimgi ma'lumotlar yozilgan tilni ham bilar edi [6].

Kundan so'ng **Aleksandr** Ludvigovich Samarqand va unga yaqin joylarda joylashgan masjid va madrasalardagi barcha minoralarni ko'zdan kechirdi. Biroq, buning uchun sarflangan katta sa'y-harakatlarga qaramay, yo'qolgan kutubxonaning izlarini topishning iloji bo'lmadi. Eng boy qo'lyozmalar to'plami haqidagi afsona Yevropa olimlari va sayohatchilarini qiziqtirdi. XIX asrning ikkinchi yarmidayoq Yevropaning taniqli olimlari Vamberi, Skayler, Uolles va Samarqandga tashrif buyurgan boshqa bir qancha ishqibozlar ushbu kitob omborini izlab yurgan edilar.

1881-yilda Parijda "O'rta Osiyoga paroxodda" nomli kitob nashr etildi, uning muallifi marshal Ney Napoleon-Polning tug'ilgan nabirasi, fransuz harbiy rahbari, jurnalisti va sayohatchisi bir yarim oydan kamroq vaqt ichida Rossiya imperiyasining muhim qismlarida bo'ldi. Ushbu nashrning uch jildli maqolasi Samarqandga bag'ishlangan [7:89-b.].

1403-yilda Samarqandga tashrif **buyurgan** Ispaniya elchisi Ryui Gonzales de Klavixo o'zining kundalik daftariga kutubxona to'g'risidagi ayrim ma'lumotlarni qayd qilgan edi. 1863-yilda venger sharqshunosi Armeniy Vamberi Markaziy Osiyo **bo'ylab** sayohati davomida, Samarqandda mashhur arman-yunon kutubxonasining "izlari"ni topishga intildi. Markaziy Osiyoni Rossiya bosib olgandan keyin ko'pgina sharqshunoslar va turli mamlakatlarning olimlari o'z nazarlarini Amir Temurning mashhur kutubxonasiga qaratdilar, uning taqdirini bilishga qiziqdilar. Turkiya viloyatida istiqomat qilayotgan armanlar 1868-yilda Samarqand va Buxoro arman-yunon kutubxonasini topish to'g'risidagi iltimosi bilan hukumatga murojaat qildilar [8:32–33-b.].

Bir versiyaga ko'ra, kitob ombori joylashgan rasadxonaning qazish ishlari bu taxminni tasdiqlamadi. Afsonaviy kutubxonani qidirish keyingi o'n yilliklarda olib borildi. Yana bir versiyaga ko'ra, kitoblarni buyuk munajjim **Ali Qushchining** sherigi Afg'oniston viloyatlaridan biriga olib ketgan, ikkinchisiga ko'ra, ular Samarqand zindonlaridan biriga dafn etilgan [9:15-b.].

Boshqa variantlar ham bor edi. Shunday qilib, Ali Qushchi karvoni Temur kutubxonasining o'ndan bir qismiga ham ega emas edi. Shunday ekan, to'plangan asarlarning aksariyati Samarqandda qolib, o'sha joylarda tez-tez sodir bo'ladigan zilzila paytida qulab tushgan minora vayronalari ostida ko'milgan bo'lishi mumkin [10].

O'tgan asrning 60-yillari boshida O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida tarixchi va o'lkashunos olimlarning Ulug'bek kutubxonasi Afg'onistonga umuman olib ketilmagani, Qashqadaryo tog'larida yashiringanligi haqidagi maqola va eslatmalar paydo bo'la boshladi. Hatto uning joylashgan joyini — xuddi shu nomdagi daryoning yuqori oqimidagi **Hazrati Bashir** qishlog'ini nomlagan holda — sensatsiya mualliflari kitoblar bilan u yerda maxsus jihozlangan zindonda saqlanganiga ishonitirishdi. Matbuotdagi shov-shuvlar jamoatchilik fikri tomonidan qo'llab-quvvatlandi [11:13-b.].

Keyin esa **1963-yilning** bahorida Respublika Fanlar akademiyasi ko'rsatilgan hududga samarqandlik arxeologlar guruhini yubordi, ular tarkibiga olimlar S. Kabanov, K. Shaxurin, A. Asqarov va laborant A. Kobzev kiradi. Topilgan epigrafik yodgorliklar va tarixiy mazmundagi kitoblar bilan tanishish uchun O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti xodimlari A. Juvanmardiev va T. Negmatovlar **Hazrati Bashirga** yuborildi. Bir asrlik pistazor bilan o'ralgan mahalliy qabristonni o'rganib chiqqan olimlar bir qancha qadimiy qabrlarni topdilar. Ulardan biri Hazrati Bashir avliyoning qabri bo'lsa, ikkinchisi temuriylar davrida tuman hokimi bo'lgan amir Said al-Abtariy edi. Yana bir qancha qabr toshlarini sanab bo'lmadi. Shuningdek, arxeologlar qirq kunlik namoz o'qish uchun mo'ljallangan sun'iy g'or (chillaxona) hamda qishloqda joylashgan XVIII asrga oid masjid xarobalari bilan tanishdilar. Biroq ularning izlanishlarining asosiy yo'nalishi go'yoki yer ostida kutubxona joylashgan Niyoztepa tepaligi edi. [12:18-b.].

Uning izidan borib, arxeologlar qidiruv maydonini sezilarli darajada kengaytirdilar, ammo natija bir xil bo'ldi. Ular faqat sobiq aholi punktlarining qoldiqlarini: uylar devorlari, oshxona anjomlari, sopol buyumlar bo'laklarini topishga muvaffaq bo'ldilar, bu Temuriylar davrida Hazrati Bashir kichik feodal mulkining markazi bo'lganligini ta'kidlash uchun asos bo'ldi.

Ushbu ekspeditsiya nafaqat Ulug'bek kutubxonasini nomidagi qishloq hududiga olib o'tish masalasini yopdi, balki u haqidagi mavjud versiyalarga ham tuzatishlar kiritdi. Ilgari Ali Qushchi kutubxonasi bilan bu yerga faqat o'zi tug'ilgani uchun borgan, deb taxmin qilingan va bu taxminning asosi qo'shni qishloqlardan birining nomini qo'pol ravishda buzib ko'rsatish edi: **Qutchi** o'rniga, u uzoq vaqt davomida chaqirilganidek, afsonalar ta'siriga berilgan odamlar uni **"Qushchi"** deb atashgan [10:23-b.]. Uni topish turli ixtisoslikdagi olimlar — sharqshunoslar, tarixchilar va arxeologlarning azaliy orzusi edi. Ularning fikricha, taqdiri hanuzgacha rivoyatlar mavzusi bo'lib kelayotgan Ulug'bek kutubxonasi saqlanib qolgan va buzilmagan. Shu munosabat bilan turli taxmin va farazlar ilgari surilgan. Boshqa bir olim B. Ahmedov ham bu variantni mumkin deb hisoblaydi. Ulug'bek tomonidan tasdiqlangan dastlabki rejaga ko'ra, tegishli vakolatlariga ega bo'lgan va cheksiz mablag' bilan ta'minlangan Ali Qushchi hukmdor vafotidan keyin yuzaga kelgan sarosima tufayli o'zi bilan olib ketishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni — kitoblar, qo'lyozmalar, chizmalar va hokazolarni olib, shoshilinch ravishda Samarqandni tark etadi. U katta karvon bilan avval mamlakatdan chiqib ketadi. "Kutubxonani yerdan izlash befoйда", — deydi Penjikent arxeologik ekspeditsiyasi rahbari A. M. Belenitskiy [12:19-b.].

Samarqand universiteti dotsenti A. E. Xatipov qo'lyozmalarning bugungi kungacha saqlanib qolganiga ishonchi komil. Sultonning hamrohlari nodir kitoblarning ajoyib to'plami rasadxona taqdirini baham ko'rishiga yo'l qo'ya olmaganlar. A. Xatipovning so'zlariga ko'ra, kitoblar Hazrati Bashir qishlog'i yaqinida yashirilgan. Olimlarning fikrlari bir-biriga to'g'ri kelmaydi, versiyalar har xil, ammo ularning barchasi bir masalada birlashadi — qo'lyozmalar buzilmagan, kutubxonani topish kerak!

Kutubxonaning mavjudligi haqida ishonchliroq ma'lumotlar ham mavjud. Ulug'bekning shogirdi, matematik olim Ali Qushchi **"Arifmetika kaliti"** risolasining so'zboshisida shunday yozadi: "Men buni eng ulug', oliyjanob Sulton Ulug'bek Ko'ragon kutubxonasi uchun qildim".

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va temuriylar davrida shakllangan kutubxonalar o'z davrining yuksak ilmiy-madaniy markazlari sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu kutubxonalar nafaqat ilm-fan rivojiga xizmat qilgan,

balki boy qo'lyozma merosini jamlash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazishda ham muhim rol o'ynagan.

Tarixiy manbalar va ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Temuriylar kutubxonasi to'liq yo'qolib ketmagan, balki uning ayrim qismlari bugungi kunda ham turli mamlakatlarning kutubxona va muzeylarida saqlanmoqda. Bu esa mazkur davr ilmiy merosining keng miqyosda tarqalganligini anglatadi.

Shuningdek, Mirzo Ulug'bek va boshqa temuriy hukmdorlar tomonidan ilmiy boyliklarni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratilganligi, kutubxona faoliyati ma'lum darajada maxfiy tus olgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Ayrim farazlarga ko'ra, qo'lyozmalarning bir qismi turli hududlarga tarqatilgan yoki yashirilgan.

Umuman olganda, Temuriylar davri kutubxonalari jahon ilm-fani va madaniyati rivojida muhim o'rin tutadi. Ularni chuqur o'rganish va mavjud qo'lyozmalarni ilmiy muomalaga kiritish bugungi kun tadqiqotchilari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmatov A., Qambarov G'. Ilm-fan va innovatsiya // *Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*. – URL: <https://in-academy.uz/index.php/si>
2. Bibliomir83. *Tayna biblioteki Timura* [Elektron resurs]. – 2019. – URL: https://bibliomir83.blogspot.com/2019/04/blog-post_5.html (murojaat qilingan sana: 03.05.2025).
3. Kormilisin A. I., Rasulov M. M., Davlatov S. X. *Kutubxonashunoslik ishining nazariyasi va tarixi*. – Toshkent, 2003.
4. Kosarev A. *Zamorskiye klady: kladoiskatelskiye istorii* [Elektron resurs]. – URL: https://libking.ru/books/russian_contemporary/643333-aleksandr-kosarev-zamorskieklady-kladoiskatelskie-istorii.html (murojaat qilingan sana: 03.05.2025).
5. Nazar'yan R. Po sledam legendarnoy biblioteki Ulugbeka [Elektron resurs] // *Samcity.uz*. – 2016. – URL: <https://www.samcity.uz/gorod/593-posledam-legenda> (murojaat qilingan sana: 03.05.2025).
6. Nazar'yan R. V poiskakh legendarnoy biblioteki Ulugbeka [Elektron resurs] // *Vesti.uz*. – 2020. – URL: <https://vesti.uz/v-poiskah-legendarnoy-biblioteki-ulugbeka/> (murojaat qilingan sana: 03.05.2025).
7. Rasulov O. *Temur kutubxonasi bormi?* [Elektron resurs]. – 2021. – URL: <https://telegra.ph/Temur-kutubxonasi-bormi-11-25> (murojaat qilingan sana: 03.05.2025).
8. To'ychiyeva D. Amir Temur va Temuriylar davrida kitobat san'ati va kutubxonalar // *Oriental Art and Culture: Scientific-Methodical Journal*. – 2022. – Vol. 3. – No. 2. – B. 290–297.
9. *Ulug'bek kutubxonasi haqidagi material* [Elektron resurs]. – URL: <https://oyina.uz/uz/article/3376> (murojaat qilingan sana: 03.05.2025).